

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / SENTABR /
9-SON, I-QISM

Google
scholar

RePEc
RESEARCH PAPERS
IN ECONOMICS



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
I-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdulkarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INVESTITSION FAOLIYATNI RAG'BATLANTIRISH VA BAHOLASHNING XORIJIY TAJRIBASI	34
Aytmuratova Ulbike Jalgasovna BREND POZITSİYALASH STRATEGİYASINI ISHLAB CHIQUISHDA BOZOR TADQIQOTLARI METODIKASI	41
Jumayeva Zulfiya Qayumovna GLOBAL MOLIYAVIY BEQARORLIKNING O'ZBEKISTON MILLIY VALYUTASI BARQARORLIGIGA TA'SIRI	46
Davlatova Nilufar Avazovna KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MAKROIQTISODIY SAMARADORLIGI: MANZILLI SAMARADORLIK INDEKSI (MSI) ASOSIDA BANDLIK DASTURLARINI BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA)	50
Eshmurodov Adhamjon Rahmonjonovich АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ ООО «SAM PULSAR DISTRIBUTORS»	61
Мусаева Шоира Азимовна KICHIK BIZNESDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINING O'RNI VA AHAMIYATI	68
Tukhtasinova Intizorkhon Sherzod qizi GLOBALLASHUV DAVRIDA JAHON IQTISODIYOTIDAGI O'ZGARISHLARNING YANGI O'ZBEKISTONGA TA'SIRI	73
Jahongir Nurulloevich Jurayev YASHIL INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGI	77
Nasulloeva Oydiyoy Saidovna ПРИВЛЕЧЕНИЕ МОЛОДЁЖИ К ЭКСПОРТУ ЦИФРОВЫХ УСЛУГ: МЕХАНИЗМ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ	82
Палвонова Севара Бахромовна MINTAQA IQTISODIYOTINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHDA IT-PARKLARNING NAZARIY VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI	94
Sultanova Zuxra Jaksilikovna INSON KAPITALINING KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI	99
Baymuradov Shoxrux Maxmudovich Dilmurodov Komiljon Ahmad o'g'li RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI MONITORING QILISHNING INTEGRATSIYALASHGAN UZEMS MODELI	103
Bobobekov Ergash Abdumalikovich AUDIT JARAYONIDA MOLIYAVIY FIRIBGARLIK BELGILARINI ANIQLASHNING TAHLILIY TARTIB-TAOMILLARINI TAKOMILLASHTIRISH	108
Xusanov Shuxrat Burxanovich FROM AUTOMATION TO STANDARDIZATION: OPERATIONS MANAGEMENT CHALLENGES IN UZBEKISTAN'S HOSPITALITY SECTOR	115
Asal Kadirova СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ГОСТИНИЧНЫМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ НА ОСНОВЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ В УЗБЕКИСТАНЕ	125
Нигматова Сугдиена Жалолiddин кизи	



SANOAT 4.0 TEXNOLOGIYALARINING RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHI VA UZOQ MUDDATLI IQTISODIY O'SISHDAGI ROLI	131
Komilova Dilafruz Rustam qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH TARMOG'INI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY AHAMIYATI	137
Samiyeva Gulnoza Toxirovna	
O'taganov Fazliddin Isroil o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СТРАХОВАНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТУРИСТСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ	142
Эргашева Файёза Боходир кизи	
МЕХАНИЗМЫ ГАРМОНИЗАЦИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО УЧЕТА И ОТЧЕТНОСТИ В МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКЕ	146
Жиенбаева Айсанем Оразбаевна	
XORAZM VILOYATIDA SHOLI YETISHTIRISHNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA UNING RESPUBLIKA SHOLICHILIGIDAGI O'RNI	154
Matrasulova Feruza Baxodirovna	
YIRIK KORXONALARDA SOLIQ NAZORATINING HUQUQIY ASOSLARI VA HORIIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	159
Qo'shaqov Asrorjon Nematjonovich	
ФОРМИРОВАНИЕ РЕЗУЛЬТАТИВНОЙ СТРУКТУРЫ БЮДЖЕТНЫХ ПРОГРАММ В СФЕРЕ СТРОИТЕЛЬСТВА И ЖИЛИЩНО-КОММУНАЛЬНОГО ХОЗЯЙСТВА: МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ	166
Мирзаева Дилдора Иномовна	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI VA KREDIT RISKLARI HOLATINI BAHOLASH (DAVLAT BANKLARI MISOLIDA)	174
Eshboyev Shahobiddin Anorqul o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	183
Aslanova Dilnoza Fatilloevna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TASHKILOT BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: NAZARIY YONDASHUVLAR VA BAHOLASH METODOLOGIYASI	187
Raxmonova Nilufar Umedovna	
HUDUDIIY IQTISODIYOT TARKIBIIY O'ZGARISHLARINI SHAKLLANTIRISHDA SANOATLASHUV, XIZMATLAR SEKTORI VA INVESTITSIYALARNING ROLI	196
Raxmonqulova Nafisa Olimjon qizi	
SOLIQ BAZASI TUSHUNCHASI, UNING MAZMUNI VA IQTISODIY MOHIYATI	201
Gadoyeva Nilufar Erkinovna	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA KORXONALARNING MOLIVAVIY MENEJMENT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	208
Atadjanova Sevinch Qurbonbayevna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON TIJORAT SUBYEKTLARINI SOLIQA TORTISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	214
Homidov Baxtiyor Rahimberdievich	
XIZMATLAR SOHASIDA INNOVATSION MARKETINGNI QO'LLASH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	222
I.R.Sabirjanova	
OPPORTUNITIES FOR UTILIZING TAX INCENTIVES GRANTED TO SMALL AND MEDIUM-SIZED ENTERPRISES FOR THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THEREGIONAL ECONOMY	228
Palvanbayev Umidbek Uktam o'g'li	
MINTAQAVIIY TURISTIK KLASSTERLARNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI: IQTISODIY SAMARADORLIK MODELII	233
Kazokova Dilnoza Bobirovna	
KORPORATIV BOSHQARUVNING QURILISH KORXONALARI IQTISODIY SAMARADORLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY YONDASHUVLARI	238
G'iyosov Ilxom Karimovich	



O'ZBEKISTONDA KAPITAL BOZORINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI TAHLILI	246
Xaitova Gulmira Matsalayevna	
SUV TEJOVCHI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR RIVOJLANISHINING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI	253
Sangirova Umida Ravshanovna	
МЕТОДЫ СИСТЕМ ПРОГНОЗИРОВАНИЯ И ПЛАНИРОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕСУРСОВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	259
Н. М. Эргашева	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI.....	265
Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich	
Ishbekova Lobar Yunusxonovna	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING TO'LOV QOBILIYATINI TA'MINLASHDA PUL OQIMLARINI BOSHQARISHNING O'RNI.....	271
Ishbekova Lobar Yunusxonovna	
ТЕНДЕНЦИИ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ТАДЖИКИСТАНА ЗА 35 ЛЕТ ГОСУДАРСТВЕННОЙ НЕЗАВИСИМОСТИ	276
Икромни Нуриддин Киём	
Раҳматзода Далер Талбак	
YANGI O'ZBEKISTONDA GILAMCHILIK SANOATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI VA ISTIQBOLLARI	283
Farog'at Xo'jabekova	
MINTAQADA AGROTURIZMNI XORIJIY TAJRIBA ASOSIDA RIVOJLANTIRISH: XALQARO MODELLAR VA O'ZBEKISTON UCHUN INNOVATSION MEXANIZMLAR.....	288
Aliqulov Humoyun Tohir o'g'li	
KICHIK BIZNESDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-BOSHQARUV MEXANIZMI.....	294
Kabilova Shahnoza Jurayevna	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI VA MOBIL ILOVALAR YORDAMIDA CHAKANA BANK XIZMATLARINI KO'RSATISH	301
Parpiboyeva Lobar Abdikomilovna	
TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV MIJOZLARNI MOLIYALASHTIRISHNING TAHLILI	308
Abduraxmanov Farrux Talipjanovich	
TURIZM SOHASI BARQAROR RIVOJLANISHINING ASOSIY TENDENSIYALARI VA TARKIBIY O'ZGARISHLARI TAHLILI	316
O'sarov Abdulla Davronqulovich	
KICHIK BIZNES SOHASIDA INSON KAPITALI VA MEHNAT MUNOSABATLARINING IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI, MOHIYATI VA NAZARIY YONDASHUVLAR.....	323
Ulug'muradova Nodira Berdimuradovna	
MILLIY YASHIL TAKSONOMIYANING O'ZBEKISTONDA YASHIL INVESTITSIYALAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI.....	329
Usmonova Gulasal Akmal qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BUXGALTERIYA HISOBI TIZIMINI ISLOH ETISHNING ASOSIY BOSQICHLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	334
Bekimbetova Asal Ergash qizi	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ЗАКУПОК: ОТ ТРАДИЦИОННЫХ ТЕНДЕРОВ К ЭЛЕКТРОННЫМ ПЛАТФОРМАМ	340
Ризакулов Шерзод Шермуратович	
TIJORAT BANKLARIDA JISMONIY SHAXSLARNI KREDITLASH AMALIYOTINING EKONOMETRIK PROGNOZI VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	346
Jumayev Azamat Qurbonali o'g'li	



TIJORAT BANKLARIDA STRATEGIK REJALASHTIRISH JARAYONLARIGA SUN'YI INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI INTEGRATSIYALASH MEXANIZMLARI	352
Ro'ziboyev Shuxrat Komilovich	
ADVOKATLIK XIZMATLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	360
Turayev Shaxriyor Shodiyorovich	
OLIY TA'LIM XIZMATLARINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	366
Pardayev Jaxongir Sobirjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDAGI ISHTIROKINI OSHIRISH YO'LLARI	372
Butayev Axror Abduxolikovich	
GLOBALASHUV VA RAQOBAT SHAROITIDA O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINI O'TKAZISHNING MUHIMLIGI HAMDA UNING KELGUSI ISTIQBOLLARI	385
Nizamov Umid Najimovich	
PATHWAYS TO SUSTAINABLE ENERGY TRANSITION IN UZBEKISTAN AND THE ROLE OF POLICY AND INVESTMENT MECHANISMS (EVIDENCE FROM INPUT-OUTPUT-CGE MODEL)	391
Gulmuxamedova Dilbar	
METAEXTRACT: A HYBRID METADATA EXTRACTION SYSTEM COMBINING RULE-BASED AND STATISTICAL APPROACHES	399
Rashid Muhtorovich Turgunbaev	
HUDUDLARDA YASHIL TURIZMNI RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI VA HOLATINI TAHLILI	405
Nozimov Eldor Anvarovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA DAROMADLAR VA XARAJATLAR BUXGALTERIYA HISOBINI MHXS ASOSIDA YURITISHNI TAKOMILLASHTIRISH	410
Kuvatova Dinara Anvarovna	
HUDUDIY IQTISODIY SALOHİYAT VA ELEKTRON TIJORAT RIVOJLANISHI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIKNI BAHOLASH	416
Ravshanova Muhayyo Maxmanazarovna	
QAYTA ISHLASH SANOATINI TIZIMLI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI: MODEL VA PROGNOZLAR	421
Jo'rayev Farrux Do'stmirzayevich	
Rahimov Abdihakim Muhammadiyevich	
TASHQI SAVDONI RIVOJLANTIRISH JARAYONLARINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	425
Jo'rayev Farrux Do'stmirzayevich	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT VA "YASHIL IQTISODIYOT" SHAROITIDA MULKCHILIK MUNOSABATLARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI.....	429
Tashmuamedova Mahina	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ДОВЕРИТЕЛЬНОГО УПРАВЛЕНИЯ ГОСУДАРСТВЕННЫМИ ДОЛЯМИ	437
Ибрагимов Махмуд Баходирович	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA INVESTITSİYALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	445
Ro'ziboyeva Zebiniso Umidbekovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AUTSORSING XIZMATLARINING XUSUSIYATLARI	452
Mirxonov Mirfoziljon Olimjon o'g'li	
TA'LIM XIZMATLARI EKSPORTINI OSHIRISH JARAYONLARINI STRATEGIK BOSHQARISH MEXANIZMLARI.....	456
Alimova Shamsiya Abidovna	



TIJORAT BANKLARIDA JISMONIY SHAXSLARNI KREDITLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	464
Aminova Mehriniso Erkinjonovna	



TIJORAT BANKLARIDA JISMONIY SHAXSLARNI KREDITLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

Aminova Mehriniso Erkinjonovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarni kreditlash jarayonining nazariy-uslubiy jihatlarini tadqiq etilgan. Unda jismoniy shaxslarni kreditlashning iqtisodiy mazmuni va bank tizimidagi funksional ahamiyati, kredit munosabatlarining shakllanish omillari hamda chakana bank xizmatlari tarkibidagi o'rni iqtisodchi olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari asosida yoritilgan. Shuningdek, jismoniy shaxslarga kredit ajratish jarayonida qo'llaniladigan asosiy tamoyillar, qarz oluvchining kreditga layoqatliligini baholash mezonlari va kredit riskini boshqarish usullari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tijorat banki, jismoniy shaxslar, kreditlash, chakana bank xizmatlari, kreditga layoqatlilik, kredit riski, qarz yuki, kredit portfeli, bank kredit siyosati, kredit resurslari.

Abstract. This article examines the theoretical and methodological aspects of lending to individuals by commercial banks. It highlights the economic essence and functional significance of lending to individuals within the banking system, the factors influencing the formation of credit relations, and its role in the structure of retail banking services based on the scientific and theoretical views of economists. The study also analyzes the key principles applied in lending to individuals, the criteria for assessing borrowers' creditworthiness, and methods of credit risk management.

Keywords: commercial bank, individuals, lending, retail banking services, creditworthiness, credit risk, debt burden, loan portfolio, bank credit policy, credit resources.

Аннотация. В данной статье исследованы теоретико-методологические аспекты кредитования физических лиц коммерческими банками. На основе научно-теоретических взглядов экономистов раскрыты экономическая сущность и функциональное значение кредитования физических лиц в банковской системе, факторы формирования кредитных отношений, а также его роль в структуре розничных банковских услуг. Кроме того, проанализированы основные принципы кредитования физических лиц, критерии оценки кредитоспособности заемщиков и методы управления кредитным риском.

Ключевые слова: коммерческий банк, физические лица, кредитование, розничные банковские услуги, кредитоспособность, кредитный риск, долговая нагрузка, кредитный портфель, кредитная политика банка, кредитные ресурсы.

KIRISH

Tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarni kreditlash amaliyoti bank tizimining eng rivojlangan va yuqori daromad keltiruvchi yo'nalishlaridan biridir. Ushbu yo'nalishning kengayishi aholi daromadlari va iste'mol ehtiyojlarining ortishi, moliyaviy xizmatlar bozorida raqobatning kuchayishi hamda banklar tomonidan chakana kredit mahsulotlarining diversifikatsiya qilinishi bilan izohlanadi. Ayniqsa, iste'mol kreditlari, ipoteka va mikrokreditlash xizmatlarining ommalashuvi bank aktivlari tarkibida jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar ulushining ortishiga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, global iqtisodiy sharoitlarning o'zgaruvchanligi, inflyatsiya darajasi, aholi to'lov qobiliyatidagi o'zgarishlar hamda kredit portfeli sifatiga ta'sir etuvchi omillar banklarda kredit risklarini samarali boshqarish zaruratini oshirmoqda. Kredit operatsiyalari banklar uchun muhim daromad manbai bo'lishi bilan birga, ularni puxta va tizimli boshqarishni talab etadi. Xususan, ta'minlanmagan kreditlar bo'yicha majburiyatlarning o'z vaqtida bajarilmasligi ehtimoli banklardan risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishni, kredit berish mezonlarini muntazam ravishda qayta ko'rib chiqishni hamda ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun yetarli rezervlar shakllantirishni taqozo etadi. Mazkur chora-tadbirlar bank tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va kredit risklarini maqbul darajada boshqarishga xizmat qiladi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

“Kredit” va “jismoniy shaxslarni kreditlash” tushunchalarining iqtisodiy mohiyatini ilmiy jihatdan to‘g‘ri talqin etish, uning nazariy va amaliy asoslarini chuqur o‘rganish dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi. Turli iqtisodchi olimlar tomonidan ushbu tushunchalarga nisbatan bildirilgan yondashuvlar uning mazmun-mohiyatini kengroq anglash imkonini beradi.

Xorijiy iqtisodchi olim, xususan, E.J. Dolanning ta’kidlashicha, kredit – bu pul mablag‘lari yoki tovarlarni ma’lum muddatdan keyin qaytarish sharti bilan vaqtincha foydalanish uchun berish munosabatidir [1], deb ta’riflaydi. Muallif kredit munosabatlarining asosini ishonch va qaytarish tamoyili tashkil etishini alohida qayd etadi.

Yana bir iqtisodchi olim Dj. Sinkining fikriga ko‘ra, kredit bank faoliyatining muhim iqtisodiy vosita bo‘lib, u moliyaviy resurslarni iqtisodiyot subyektlari o‘rtasida qayta taqsimlash orqali investitsion va iste’mol ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. U kreditning bank tizimi barqarorligi va iqtisodiy o‘sishdagi ahamiyatiga alohida e’tibor qaratadi [2].

P. Rouzning fikriga ko‘ra, kreditni qarz oluvchiga muayyan muddatga, foiz to‘lash sharti asosida taqdim etiladigan moliyaviy resurs sifatida ta’riflaydi. Uning qarashiga ko‘ra, kredit munosabatlari bank va mijoz o‘rtasidagi iqtisodiy manfaatlar uyg‘unligiga asoslanadi [3].

Umuman olganda, xorijlik olimlarning yondashuvlarida kredit iqtisodiy munosabat sifatida talqin qilinib, uning asosiy xususiyatlari sifatida qaytarishlilik, muddatlilik, to‘lovlilik va resurslarni qayta taqsimlash funksiyasi alohida e’tirof etiladi.

Iqtisodchi olim O.I. Lavrushin “Kredit resurslaridan oqilona foydalanishni ta’minlovchi elementlar majmuidan iborat bo‘lib, u kreditlashning tamoyillari, obyektlari, subyektlari va maqsadini qamrab oladi [4]”, deb ta’riflaydi.

Yana bir iqtisodchi olim R.G. Olxova esa “Bank krediti – kreditning asosiy shakli hisoblanadi. Bu shuni anglatadiki, vaqtinchalik moliyaviy yordamga ehtiyoj sezgan subyektlarga kredit mablag‘lari, asosan, banklar tomonidan taqdim etiladi. Bank krediti kreditning pul shakli bo‘lib, u mablag‘larni qaytarish, to‘lovlilik va muddatlilik shartlari asosida qarzga berish jarayonida yuzaga keladi [5]”, deb ta’kidlaydi. Yuqoridagi iqtisodchi olimlar tomonidan keltirilgan ta’riflar kreditning tamoyillari asosida shakllantirilganini ko‘rishimiz mumkin.

Sh. Abdullayevaning xulosasiga ko‘ra, kredit – bu vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag‘larini pul egasi yoki boshqalar tomonidan ma’lum muddatga, haq to‘lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan iqtisodiy munosabatlar yig‘indisidir [6].

A. Omonov, T. Qoraliyevlar tomonidan “kredit – tegishli tamoyillar asosida (qaytarishlilik, to‘lovlilik, ta’minlanganlik, muddatlilik va maqsadlilik) qiymat va moddiy buyum ko‘rinishida, jismoniy va yuridik shaxslarga taqdim etiladigan iqtisodiy kategoriyalarning bir shaklidir [7]”, deb ta’riflangan.

Mahalliy iqtisodchi olimlar fikricha, kredit – bu vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag‘larini ma’lum muddatga, haq to‘lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan iqtisodiy munosabatlar yig‘indisidir [8].

Mahalliy iqtisodchi olimlarning kreditga oid qarashlarini umumlashtirib aytish mumkinki, ularning barchasi kreditni iqtisodiy munosabat sifatida talqin qiladi va uning asosiy mohiyatini vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag‘larini qaytarishlilik, muddatlilik va to‘lovlilik tamoyillari asosida qayta taqsimlash bilan bog‘lagan. Shu bilan birga, olimlar kreditning iqtisodiyotda moliyaviy resurslar harakatini ta’minlash, investitsion faollikni rag‘batlantirish hamda iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlashdagi muhim rolini alohida ta’kidlaydilar.

Jismoniy shaxslarni kreditlash masalasi iqtisodchi olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan bo‘lib, iqtisodchi olim G.G. Korobova “jismoniy shaxslarga kredit berish – bu aholiga beriladigan har qanday turdagi kreditlar, shu jumladan shoshilinch ehtiyojlar uchun kreditlar, tovarlar sotib olish, ipoteka kreditlari va boshqalar [9]”, deb ta’rif bergan.

Xorijiy iqtisodchi olimlar E.J. Dolan, K.D. Kempbell fikriga ko‘ra, “jismoniy shaxslarga beriladigan kreditlar – aholiga uzoq muddat foydalaniladigan iste’mol tovarlari sotib olish uchun berilgan kreditlar [10]”.

Dj. Sinki ta’kidlashicha, jismoniy shaxslarga beriladigan kreditlar – shaxsiy xaridlar yoki xizmatlar uchun to‘lash uchun jismoniy shaxsga ajratiladigan kredit [11] hisoblanadi.

Mazkur masala yuzasidan G.N. Beloglazova va L.P. Krolivetskayaning ilmiy qarashlariga ko‘ra, jismoniy shaxslarga beriladigan kreditlar – bu jismoniy shaxslarga (iste’molchilarga) shaxsiy, oilaviy va tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa ehtiyojlar uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotib olish uchun beriladigan kreditlardir [12].

Boshqa bir iqtisodchi olim E.F. Jukov esa “jismoniy shaxslarni kreditlash – bu bank tomonidan aholining turmush sharoitini yaxshilash, qimmatbaho iste’mol tovarlarini sotib olish va boshqalar uchun beriladigan kreditlardir [13]”, deb ta’kidlaydi.

V.V. Sidorov qayd etishicha, jismoniy shaxslarni kreditlash – bu jismoniy shaxslarga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lmagan ehtiyojlarini qondirish uchun kredit mablag‘larini berish jarayoni [14].



S.V. Kudryashovning ilmiy yondashuviga ko'ra, jismoniy shaxslarga beriladigan kreditlar uy xo'jaliklarining iste'mol va boshqa iqtisodiy ehtiyojlarini moliyalashtirishga xizmat qiluvchi bank kreditlarining alohida turlaridan biri hisoblanadi [15].

E.S. Kavruk ta'kidlashicha, jismoniy shaxslarni kreditlash – bu banklar tomonidan iste'mol tovarlarini sotib olish, shuningdek, o'ziga xos har xil turdagi xarajatlarni (tibbiy yordam, o'qish to'lovlari va boshqalar) to'lash uchun kreditlar berishdir [16].

Jismoniy shaxslarni kreditlash masalasiga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur iqtisodiy kategorianing mazmun-mohiyati bo'yicha yagona yondashuv shakllanmagan. Xususan, G.G. Korobova, E.J. Dolan, K.D. Kempbell, Dj. Sinki, G.N. Beloglazova, L.P. Krolivetskaya, E.F. Jukov, V.V. Sidorov, S.V. Kudryashov va E.S. Kavruk kabi olimlar tomonidan berilgan ta'riflarda jismoniy shaxslarni kreditlashning turli jihatlari yoritilgan.

Mazkur olimlarning ilmiy qarashlarini tahlil qilish natijasida aniqlandiki, ularning aksariyati jismoniy shaxslarni kreditlashni aholining iste'mol va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi bank kreditlarining alohida shakli sifatida talqin qilgan. Shu bilan birga, ayrim olimlar ushbu jarayonning iqtisodiy mazmunini faqat iste'mol ehtiyojlari bilan bog'lagan bo'lsalar, boshqalari ipoteka, ta'lim, tibbiy xizmatlar va boshqa ijtimoiy ahamiyatga ega xarajatlarni moliyalashtirish imkoniyatlarini ham uning tarkibiy qismi sifatida baholaydi. Bu holat jismoniy shaxslarni kreditlashning iqtisodiy mohiyati vaqt o'tishi bilan kengayib, aholi farovonligini oshirishga qaratilgan kompleks moliyaviy vosita sifatida shakllanganligini ko'rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, mavjud ilmiy yondashuvlarni umumlashtirish asosida ta'kidlash mumkinki, jismoniy shaxslarni kreditlash nafaqat aholining vaqtinchalik moliyaviy ehtiyojlarini qondirish mexanizmi, balki uy xo'jaliklarining iqtisodiy faolligini rag'batlantirish, ichki talabni qo'llab-quvvatlash va iqtisodiyotda moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim iqtisodiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Yuqoridagi iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlari va nazariy yondashuvlarini umumlashtirgan holda quyidagicha muallif ta'rifi shakllantirildi. Jismoniy shaxslarni kreditlash – tijorat banklari va jismoniy shaxslar o'rtasida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimi bo'lib, unda aholining iqtisodiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida pul mablag'larini qaytarishlilik, muddatlilik, to'lovlilik, ta'minlanganlik va maqsadlilik tamoyillari asosida vaqtinchalik foydalanishga taqdim etish jarayoni amalga oshiriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda tijorat banklarida jismoniy shaxslarni kreditlashning nazariy-uslubiy asoslari tizimli va kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Jismoniy shaxslarni kreditlashning iqtisodiy mazmuni, asosiy tamoyillari, kreditga layoqatlilikni baholash va kredit riskini boshqarish mexanizmlari tahlil qilindi. Shuningdek, banklarning chakana kreditlash amaliyotidagi mavjud tendensiyalar baholanib, kreditlash samaradorligini oshirish va kredit risklarini kamaytirishga qaratilgan uslubiy yondashuvlar asoslandi. Mazkur metodologik yondashuvlar tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi va amaliy ahamiyatini ta'minlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarni kreditlash usullari kredit munosabatlarini amalga oshirish mexanizmini ifodalaydi hamda kredit mablag'larini qarz oluvchiga ajratish va ularning qaytarilishini tashkil etish tartibini belgilaydi. Ushbu usullar kreditlash tamoyillarining amaliyotdagi ifodasi hisoblanib, bank va qarz oluvchi o'rtasidagi munosabatlarning tashkiliy-iqtisodiy asosini shakllantirish imkonini beradi.

Jismoniy shaxslarni kreditlashda, asosan, mijozning bevosita murojaatiga asoslangan kreditlash mexanizmi qo'llaniladi. Bunda kredit mablag'lari qarz oluvchining moliyaviy holati, to'lov qobiliyati va kredit maqsadidan kelib chiqqan holda taqdim etiladi. Amaliyotda mazkur kreditlash mexanizmi turli shakllarda namoyon bo'lib, ularning asosiylari bir martalik kreditlar, ochiq kredit liniyasi orqali kreditlash hamda overdraft shaklida kreditlash hisoblanadi.

Bir martalik kreditlashda bank tomonidan qarz oluvchiga muayyan maqsad uchun belgilangan miqdordagi mablag' ajratiladi va uni qaytarish shartlari kredit shartnomasida aniq belgilab qo'yiladi. Kredit liniyasi orqali kreditlashda esa qarz oluvchiga belgilangan limit doirasida ma'lum davr mobaynida mablag'lardan bosqichma-bosqich foydalanish imkoniyati yaratiladi. Overdraft shaklida kreditlashda bank mijozning hisobvarag'idagi mablag'lar qoldig'idan ortiq miqdorda to'lovlarni amalga oshirish huquqini taqdim etadi, bu esa qisqa muddatli likvidlik ehtiyojlarini qoplash imkonini beradi.

Shu sababli, jismoniy shaxslarni kreditlashda qo'llaniladigan metodlar aholining turli xil moliyaviy ehtiyojlarini qondirish, kredit mablag'larining samarali joylashtirilishini ta'minlash hamda banklarning kredit faoliyati



samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur metodlarning ilmiy asoslangan tarzda qo'llanilishi kredit risklarini aniqlash, baholash va ularni maqbul darajada boshqarish imkonini yaratadi.

Shu bilan birga, jismoniy shaxslarni kreditlash sohasida samarali kredit siyosatining shakllantirilishi banklar tomonidan kredit resurslarini oqilona taqsimlash, mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va kredit portfelining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Natijada bankning raqobatbardoshligi mustahkamlanib, mijozlar sonining ko'payishi, kredit operatsiyalarining hajmi kengayishi hamda muammoli kreditlar ulushining qisqarishi uchun zarur shart-sharoitlar vujudga keladi.

Tijorat banklarining kredit siyosati bank faoliyati samaradorligini ta'minlash va kredit operatsiyalarining barqarorligini saqlashga qaratilgan muhim yo'nalish hisoblanadi. Uning asosiy vazifalari qatoriga yuqori sifatli kredit aktivlarini shakllantirish orqali daromadlilikni oshirish, kredit risklarini boshqarish va minimallashtirish, kredit portfelining samaradorligini ta'minlash kiradi. Shu bilan birga, banklar qarz oluvchilar bilan samarali ishlay oladigan malakali mutaxassislar faoliyatini tashkil etish, yuqori daromad keltirish imkoniyatiga ega bo'lgan istiqbolli loyihalarni aniqlash hamda ularni moliyalashtirishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Zamonaviy bank amaliyotida mijozlar bilan uzoq muddatli hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish va yangi mijozlarni jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqsadlarga erishishda raqamli texnologiyalardan keng foydalanish banklar raqobatbardoshligini oshirishning muhim omilidir.

Kreditlash jarayonida risklarni baholash va kamaytirish maqsadida banklar Kredit axborot-tahliliy markazi (KATM) tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlardan foydalanadilar. Kredit axborot-tahliliy markazi mijozlarning kredit tarixi va moliyaviy holati to'g'risidagi ma'lumotlarni qayta ishlab, kredit skoringi tizimini shakllantiradi. Natijada banklar qarz oluvchining kreditga layoqatliligini aniqlash, kredit berish maqsadga muvofiqligini baholash va ajratiladigan kredit miqdorini belgilash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bank xizmatlarini raqamlashtirish jarayonida onlayn kredit arizalarini qabul qilish tizimi keng tarqalmoqda. Mazkur texnologiya kredit olish jarayonini soddalashtirish, vaqt sarfini qisqartirish va aholi uchun moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Shu bois, raqamli kreditlash vositalarini joriy etish banklarning mijozlar bazasini kengaytirish va xizmatlar sifatini yaxshilashning muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

Kredit byurolari tomonidan shakllantiriladigan axborot bazasi jismoniy shaxslarni kreditlash jarayonida muhim axborot manbai sifatida xizmat qiladi. Ushbu ma'lumotlar qarz oluvchilarning moliyaviy holati va kredit intizomiga xolis baho berish imkonini yaratib, kredit qarorlarini qabul qilishning tezkorligi va asoslanganligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, kredit byurolari faoliyati axborot asimmetriyasini kamaytirish, kredit risklarini maqbul darajada boshqarish hamda banklar kredit portfeli sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bu borada iqtisodchi olim F. Xolmamatov o'zining ilmiy tadqiqot ishida "Jismoniy shaxslarni kreditlash amaliyotida mavjud muammoli holatlarni bartaraf etish maqsadida ularning oylik daromadlaridan iste'mol xarajatlarini chiqarib tashlagandan so'ng qolgan qo'shimcha daromadlari asosida kreditni qaytarish jadvalini ishlab chiqish va shu grafik doirasida kreditlash zarurligini" asoslab bergan [17].

1-jadval
Jismoniy shaxslarga ajratiladigan kredit turlarining tasnifi¹

Kredit turlari	Tasnifi
1. Iste'mol kreditlari	maishiy texnika, mebel, elektronika, ta'lim, tibbiy xizmatlar va boshqa iste'mol ehtiyojlarini moliyalashtirish uchun ajratiladigan kreditlar.
2. Ipoteka kreditlari	turar joy sotib olish, qurish, rekonstruksiya qilish yoki ta'mirlash maqsadlariga yo'naltiriladigan uzoq muddatli kreditlar.
3. Avtokreditlar	yengil avtomobillar va boshqa transport vositalarini xarid qilish uchun taqdim etiladigan kreditlar.
4. Ta'lim kreditlari	oliy va professional ta'lim xizmatlari uchun to'lovlarni moliyalashtirishga mo'ljallangan kreditlar.
5. Mikrokreditlar	jismoniy shaxslarning kichik biznes, o'zini o'zi band qilish va daromad keltiruvchi faoliyatni tashkil etish ehtiyojlarini qo'llab-quvvatlash uchun ajratiladigan kreditlar.
6. Overdraft kreditlari	mijozning bank kartasi yoki hisobvarag'idagi mablag'lar yetarli bo'lmagan holatlarda qisqa muddatli qarz mablag'lari bilan ta'minlash shaklidagi kreditlar
7. Mikroqarzarlar	aniq maqsad ko'rsatilmagan holda jismoniy shaxslarning turli shaxsiy ehtiyojlarini qondirish uchun ajratiladigan kreditlar.

¹ Manba: iqtisodiy manbalar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.



Yuqorida keltirilgan nazariy va amaliy jihatlarni inobatga olgan holda, shuningdek, respublika iqtisodiyotida aholining moliyaviy ehtiyojlarini qondirish hamda iste'mol va investitsion faolligini rag'batlantirishda jismoniy shaxslarni kreditlashning tutgan muhim o'rnini hisobga olib, tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga ajratiladigan kreditlarni ularning obyekti va foydalanish maqsadidan kelib chiqqan holda muayyan turlarga ajratish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Shu asosda jismoniy shaxslarga taqdim etiladigan kreditlar quyidagi tasnifiy turlarga ajratiladi.

Respublikamizda jismoniy shaxslarni kreditlash tarkibida mikroqarzarlar va iste'mol kreditlarining ulushi yuqori sur'atlarda o'sib bormoqda. Bu holat aholining joriy iste'mol ehtiyojlarini moliyalashtirishga bo'lgan talabning ortishi, raqamli kreditlash xizmatlarining rivojlanishi va kredit olish tartib-taomillarining soddalashishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, ipoteka kreditlari aholining uy-joyga bo'lgan ehtiyojini qondirishda muhim ahamiyat kasb etib, jismoniy shaxslarga ajratilayotgan kreditlar tarkibida yirik hajmli kredit mahsuloti sifatida saqlanib qolmoqda. Avtokreditlarning ulushi avtomobillarga bo'lgan talab dinamikasiga muvofiq shakllanib, jismoniy shaxslarga ajratiladigan kreditlar tarkibida muhim o'rin egallaydi. Shu bilan birga, ularning salmog'i mikroqarzarlar va iste'mol kreditlariga nisbatan pastroq darajada saqlanib qolmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy kredit baholash usullari bilan bir qatorda raqamli texnologiyalar va zamonaviy skoring modellaridan foydalanish jismoniy shaxslarning kreditga layoqatligini baholash sifatini oshirish imkonini beradi. Bunda qarz oluvchining rasmiy daromadlari bilan bir qatorda, uning mavjud kredit majburiyatlari, qarz yuki darajasi va to'lov intizomini kompleks baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv kredit qarorlarining asoslanganligini oshirish va muammoli kreditlar yuzaga kelish ehtimolini pasaytirishga xizmat qiladi.

Shundan kelib chiqib, tijorat banklarida jismoniy shaxslarni kreditlash tizimini takomillashtirish bo'yicha quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

Kreditga layoqatlilikni baholash tizimini takomillashtirish. Qarz oluvchining daromadlari, xarajatlari, mavjud kredit majburiyatlari va to'lov intizomini inobatga oluvchi kompleks skoring modellarini joriy etish maqsadga muvofiq.

Kredit risklarini baholashning zamonaviy usullarini kengaytirish. Banklarda katta hajmdagi ma'lumotlar, sun'iy intellekt texnologiyalari va prognozli tahlil vositalaridan foydalanish kredit risklarini oldindan baholash imkoniyatlarini kengaytirish hamda kredit qarorlarining aniqligini oshirishga xizmat qiladi.

Qarz yukini baholash mexanizmlarini kuchaytirish. Jismoniy shaxslarga kredit ajratishda qarz oluvchining jami kredit majburiyatlarini hisobga olish va uning real to'lov qobiliyatiga mos kredit limitini belgilash kredit portfeli barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Raqamli kreditlash mexanizmlarini rivojlantirish. Kredit arizalarini ko'rib chiqish, hujjatlarni tekshirish va kredit qarorlarini qabul qilish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali bank xizmatlarining tezkorligi va qulayligini oshirish mumkin.

Kredit portfeli sifatini monitoring qilishni takomillashtirish. Kredit ajratilgandan keyin qarz oluvchining moliyaviy holati va to'lov intizomini muntazam monitoring qilish, muammoli kreditlarni erta aniqlash va ular bo'yicha profilaktik choralarini qo'llash maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Campbell C. D., Campbell R. G., Dolan E. G. *Money, Banking, and Monetary Policy*. – Chicago: The Dryden Press, 1988. – 617 p.
2. Sinkey J. F. *Commercial Bank Financial Management in the Financial-Services Industry*. – 6th ed. – Upper Saddle River, NJ: Prentice Hall, 2002. – 696 p.
3. Rose P. S. *Commercial Bank Management*. – 5th ed. – Boston: McGraw-Hill/Irwin, 2002. – 803 p.
4. Деньги, кредит, банки: учебник / О. И. Лаврушин [и др.]; под ред. О. И. Лаврушина. – 11-е изд., перераб. и доп. – М.: КноРус, 2013. – 448 с.
5. Ольхова Р. Г. Банковское дело: управление в современном банке: учебное пособие. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: КноРус, 2016. – 304 с.
6. Abdullayeva Sh. Z. *Pul, kredit va banklar*. – Toshkent: Moliya, 2000. – 312 b.
7. Omonov A. A., Qoraliyev T. M. *Pul, kredit va banklar: darslik*. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2012. – 324 b.
8. Rashidov O. Yu., Toymuhamedov I. R., Alimov I. I., Tojiyev R. R. *Pul, kredit va banklar: darslik*. – Toshkent: TDIU, 2009. – 439 b.



9. Коробов Ю. И., Коробова Г. Г., Карпова Р. А. [и др.] Банковские операции: учебное пособие / под ред. Ю. И. Коробова. – М.: Магистр, 2009. – 446 с.
10. Долан Э. Дж., Кэмпбелл К. Д., Кэмпбелл Р. Дж. *Деньги, банковское дело и денежно-кредитная политика*: пер. с англ. – СПб., 2005.
11. Синки Дж. Ф. *Управление финансами в коммерческих банках*: пер. с англ. 4-го изд. / под ред. Р. Я. Левиты, Б. С. Пинскера. – М.: Catallaxy, 1994. – 820 с.
12. Банковское дело: учебник / под ред. Г. Н. Белоглазовой, Л. П. Кроливецкой. – М.: Финансы и статистика, 2010. – 592 с.
13. Банковское дело: учебник / под ред. Е. Ф. Жукова, Н. Д. Эриашвили. – 4-е изд., перераб. и доп. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2014. – 687 с.
14. Сидоров В. В. *Современный рынок кредитования населения в РФ*: автореф. дис. ... канд. экон. наук: 08.00.10 / Всероссийский заочный финансово-экономический институт. – М., 2008. – 25 с.
15. Кудряшов С. В. *Споживчий банківський кредит в Україні: ресурсне забезпечення та ефективність*: автореф. дис. ... канд. экон. наук: 08.00.08 / Національний університет державної податкової служби України. – Ірпінь, 2007. – 19 с.
16. Каврук Е. С. Экономическая сущность потребительского кредита // *Научный журнал КубГАУ*. – 2007. – № 30 (6). – С. 1–7.
17. Xolmamatov F. K. *Tijorat banklarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish*: iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati: 08.00.07. – Toshkent, 2019. – 26 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>